

# **PEDAGOGIKA**

**4/2015**

*ilmiy-nazariy va metodik jurnal*



**YUKSAK SALOHIYAT EGASI**

Pedagogika fanlari nomzodi, professor Mahkamjanov Karimjon Mahmudovich 1935-yil 3-aprelda Toshkent shahrida tavallud topgan.

1953-1957-yillarda Toshkent shahridagi jismoniy tarbiya texnikumida tahsil oldi va 1957-yilda O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya institutiga o'qishga kirdi. Uni 1961-yilda tugallab, Toshkent viloyati Angren shahridagi 7-maktabda jismoniy tarbiya o'qituvchisi bo'lib ishladi.

1963-1964-yillari Toshkent shahar Chilonzor tumani sport qo'mitasi raisi, 126-maktab o'qituvchisi lavozimida ishlagan. 1964-1968-yillarda esa Toshkent shahridagi 169-maktabda faoliyatini davom ettirdi.

1969-yildan uning hayotida yangi davr boshlandi. K. Mahkamjanov shu yili Moskvadagi sobiq Butunittifoq jismoniy tarbiya ilmiy tekshirish instituti aspiranti bo'ldi. Karimjon Mahmudovich 1974-yil Moskvada nomzodlik dissertatsiyasini muvaffaqiyatli himoya qildi.

1972-1995-yillari O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya institutining "Jismoniy tarbiya" kafedrasida o'qituvchisi, katta o'qituvchisi, dotsenti lavozimlarida, 1995-yilda Qori Niyoziy nomidagi O'zbekiston pedagogika fanlari ilmiy tekshirish institutida "Jismoniy tarbiya va sport fiziologiyasi" bo'limi mudiri lavozimida faoliyat yuritdi.

1996-yilda uni Xalq ta'limi vazirligi qoshidagi O'zbekiston Respublikasi ta'lim markaziga "Jismoniy tarbiya va bolalar sporti" bo'limi mudirligiga o'tkazishadi.

1998-2001-yillari Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetida dastlab soatbay, 2002-yildan boshlab professor vazifasida ishlay boshlaydi.

2004-2006-yillarda Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetining "Chaqiriqqacha harbiy ta'lim va jismoniy tayyorgarlik" fakultetining "Jismoniy tarbiya metodikasi" kafedrasida mudiri va fakultet dekani vazifasini bajaruvchisi sifatida faoliyat yuritdi.

Karimjon aka o'z sohasining bilimdon mutaxassisi sifatida Respublikamizda keng tanilgan. U pedagogik faoliyati davomida 4ta darslik, 28ta o'quv qo'llanmasi, bitta monografiya, 200dan ortiq ilmiy maqolalari, metodik qo'llanmalari va tavsiyanomalarini chop etgan bo'lib, ular



Respublikamizda jismoniy tarbiya o'qituvchilari va talabalariga qo'l kelmoqda. Karimjon akaning 1-4-sinflar uchun yozgan "Jismoniy tarbiya" darsliklari 7ta tilda nashr qilindi. Uning darsliklari 2003-2005-yillardagi o'quv adabiyotlari tanlovida 1-2-o'ringa loyiq deb topilgan. 2003-2010-yillarda ilmiy grant rahbari, ishtirokchisi sifatida ham faoliyat ko'rsatgan. "Jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi" fani bo'yicha o'tkazib kelinayotgan Respublika olimpiadasida K. M. Mahkamjanov boshchiligidagi TDPU jamoasi faxrli o'rinlarga sazovor bo'lib kelgan.

K. M. Mahkamjanov ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlashga ham o'z hissasini qo'shgan. Uning ilmiy rahbarligida 5 nafar ilmiy xodim nomzodlik dissertatsiyasini himoya qilgan.

1998-yildan e'tiboran Karim Mahmudovichning yangi ijodiy faoliyati boshlandi. Endilikda u respublikamizda ta'lim sohasida yuz berayotgan islohotlarning faol ishtirokchisiga aylandi, ya'ni u ta'lim tizimini standartlashtirish bo'yicha bor kuch va mahoratini ko'rsata boshladi. Ayniqsa, oliy ta'limning asosiy me'yoriy hujjati bo'lgan "Jismoniy madaniyat" bakalavriat yo'nalishi va magistratura mutaxassisligi Davlat ta'lim standartining muallifi sifatida tashabbuskorlik qildi. Bu bilan ushbu yo'nalish va mutaxassislik bo'yicha O'zbekiston Respublikasida ilk bor ta'lim standartlarini yaratishga asos solingan edi.

K. M. Mahkamjanov hozir ham Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetining "Jismoniy madaniyat va uni o'qitish metodikasi" kafedراسi professori sifatida faoliyat olib bormoqda.

Karimjon aka sportning boks turiga qatnashib kelgan va 1957-1960-yillarida O'zbekiston terma jamoasi a'zosi bo'lgan.

Hukumatimiz ustozning salmoqli mehnatini munosib baholagan: K. Mahkamjanov 1984-yilda "O'zbekiston xalq maorifi a'lochisi" nishoni, 1989-yilda "Mehnat faxriysi" medali, 1995-yilda "Xalq ta'limi fidoyisi" nishoniga ega bo'lgan. Shu bilan birga, u Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan bir qator faxriy yorliqlar bilan taqdirlangan.

Tabiatan kamtarin, o'z kasbining ustasi, shogirdlarining sevimli ustozlari Mahkamjanov Karimjon Mahmudovich tabarruk yoshida ham jismoniy va ijodiy faoliyat olib bormoqda.

*Arziboyev Q. O., Abdullayev A. A. (TDPU)*

**SAN'AT VA JISMONIY  
MADANIYAT TA'LIMI**

**Касимова С.**

Повышение компетентности учеников по компьютерным технологиям на уроках прикладного искусства.....103

**KADRLAR MALAKASINI  
OSHIRISH VA QAYTA  
TAYYORLASH**

**Shoymardonov T., Giyasova U.,  
Mamasodikova S.**

Pedagog kadrlar malakasini oshirish sifatini ta'minlashda elektron tizimli tahlil.....108

**YOSH TADQIQOTCHILAR  
MINBARI**

**Эшпулатова Д., Муллакаева В.**

Компьютерные технологии в образовании детей дошкольного возраста.....115

**Ruzmetova X.**

Ilm va ta'limga baxshida umr.....119

**Arziboyev Q., Abdullayev A.**

Yuksak salohiyat egasi.....121

**Jo'rayev T.**

Bilimning ibtidosi aql, aqlning ibtidosi esa sabr-toqatdir.....123

**UNIVERSITETNING TAMAL  
TOSHINI QO'YGANLAR**

**Rixsiboyev T., Xalimov M.**

Chizmachilik va uni o'qitish metodikasi kafedrasining asoschisi.....125

**To'xliyev B., To'xliyeva D.**

Abdukarim aka fenomeni.....127